

Mashrab she'riyatida tasavvuf mavzularini aniqlash va tahlil qilish.

Eshqulova Gulsanam

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Olimjonova Xurshidabonu

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Anotatsiya: *ushbu maqolada Boborahim Mashrabning o'zbek mumtoz adabiyotida o'zgacha o'rin egallagan tasavvufni kuylovchi shoh satrlari tahlili, hamda ijod ko'lamida keng va xob murojat qilingan diniy g'oyalar yoritiladi.*

Tayanch so'zlar: *tariqat, tasavvuf, orif, karomat, ilohiylik, hofiz.*

KIRISH: Boborahim Mashrab (1640-1711) o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandasi, shoir, bastakor, sozanda, hofiz, tasavvuf-tariqatlarining vakili. Xalq ichida "Devona Mashrab", "Eshon Mashrab", "Shoh Mashrab", "Telba Mashrab", "Mardi xudo", "Avliyoi Haq", "Sohibi karomat" kabi nomlar bilan mashhur bo'lgan. Ijodiy merosi "Devonai Mashrab" qissasi, turli tazkira, bayoz va majmualar orqali yetib kelgan.

Mashrab faqat otashzabon ijodkor sifatidagina emas, balki, ayni zamonda, adolatsizlik va zo'ravonlik, qaboxat va jaholat bilan aslo kelisha olmaydigan dovyurak shaxs sifatida ham dong taratgan. Xalq tasavvurida u johil amaldorlar ustidan kuluvchi, ahloqan tuban kishilarni, munofiq din arboblarni ayovsiz fosh qilib, mehnatkashlar manfaatini himoya etuvchi botir so'z, tadbirkor kurashchi tarzida shakllangan: oddiy xalq Mashrab timsolida o'z ishonchli vakilini, o'z orzu- intilishlarini baralla ayta oluvchi otashin siymoni ko'rgan.

Mashrab she'riyatiga xos asosiy xususiyatlardan biri Allohga bo'lgan ishqdir. "Nafs ajdahosi" komidan xalos bo'lganlar uchun faqat Alloh haqdir, haqiqatdir. Shu bois inson faqat Allohni sevishi, unga oshiq bo'lishi, komil inson bo'lishga astoydil intilishi, bu mashaqqatli yo'lda barcha uqubatlarga chidashi

lozim. Barcha yaxshilik, ezgulik Alloh dandir, binobarin Uni sevgan kishi o'z yaqinlarini, ota-onasini, el-yurtini, jamiki yaxshi odamlarni ham sevadi.

Dunyoga kelib bilmay loyig'a bota qoldim,
Darmon yo'qidan zahri balosin yuta qoldim.
Ko'rdum men oni dushmani ruhi tan ekandur,
Lo o'qi bilan ikki ko'zini ota qoldim.

Albatta, dunyo boshdan-oxir botqoqdan iborat emas, lekin loy – uning bir ramzi. Shoir dunyo haqidagi qarashlarida hurlik tuyg'usiga alohida ahamiyat beradi. Hurlik nima? Ishq. Haqiqiy hur odam kim? Oshiq va orif. «Ishq yo'lig'a kirgan, albatta, kechar jondin, Kechmasa jondan aytgon so'zidur yolg'on», – deydi Mashrab. U asl maqsadga yetish uchun parda bo'lgan dunyoni tark etish tarafdori: «Ko'tarsang pardani nogoh jamolingni ko'ray derman, Jamoling partavin solsang, ki husningga to'yay derman», «Pardangni olib men sari gar birgina boqsang, Ul dam meni motamzada dar xanda bo'loyin».

Ey bandai purgunoh, turg'il saharda, yig'lag'il,
Ko'z yoshingni hurmatidin har kunda ming navo kelur.

Mashrab ijodida ko'p uchraydigan g'oyalardan biri "gunohkor bandalar"ni bu foniylar dunyodan voz kechish, foniylar dunyoga bog'lanmaslikdir, kimning gunohi yo'q deya olamiz, ushbu misralarda avom xalqqa har sahar duoda bo'lib qilgan gunohing uchun tavba qilish kerakligi, agar shunday qildsak ham gunohimiz ko'pligidan buni har kun ming bor qilsak ham yarayverishi haqida gap ketyapti. Sharq she'riyat xazinasida Mashrab ijodiyotining maqomi o'zgacha. Badiiy jihatdan mukammal bo'lgan shoir she'rlarining irfoniylar g'oyalar bilan tutashishi ushbu she'riyatning o'lmasligini ta'minlaydigan muhim jihatlardan. Uning "Hanuz" radifli g'azali ham shunday she'rlardan.

Barchalar yondi gunohdin, menki yonmasman hanuz,
Xobi g'aflatdin uyondi, man uyonmasman hanuz.
Tavbai tavfiq bilan yig'lab tururlar zor-zor,
Oxirat a'molin aytib, man qutulmasman hanuz.
Bandalarkim, lutfinga har dam suyonib o'lturur,
Bedavo nafsinni izlab man suyonmasman hanuz.
Orifu sodiq hama pandu nasihat oldilar,

Barcha panding oldilar, pandingni olmasman hanuz.

Mashrab she'rlari mazmuniga ko'ra ham, ifodasi jihatidan ham u qadar sodda emas. Chunki Mashrab falsafasining o'zi juda murakkab. Unda bu yorug' olam Alloh tushunchasi bilan birlashib ketadi. Shoir ijodida biz ko'rib turgan bu atrof-olam hammasi sir-sinoat va unda faqat Alloh namoyon ekani ifodasini topadi. Solih bandaning Allohga bo'lgan ishqini bayon etmoqqa qodir bo'lgan til bormi bu dunyoda? Yo'q, bu imkonsizdir. Nega? Buni shoir shunday izohlaydi:

Agar oshiq'lig'im aytsam, kuyub jon-u jahon o'rtar,
Bu ishq sirrin bayon qilsam taqi ul xonumon o'rtar.
Kishiga ishq o'tidin zarraye yetsa bo'lur giryon,
Bo'lub besabr-u betoqat, yurak-bag'ri chunon o'rtar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Mashrab she'rlari mumtoz adabiyotimizdagi ulkan g'oyalarni ifodalovchi – irfon bilan sug'orilgan. Shoir she'rlarini o'rganish uning shaxsiyatini chuqurroq bilishni talab qiladi. Ayni paytda bu she'rlar Mashrab shaxsini, uning ijodi manshaalarini ham mukammal idrok etishga yo'l ochadi.

REFERENCES:

1. Mashrab, Boborahim. Mehribonim qaydasan. – Toshkent: G'.G'ulom, 1990. – 416 b.
2. Kenjabek, Mirzo. Oshiq Mashrab va tasavvuf olami. – Toshkent: Navro'z, 2019. –148.
3. Yembergenov, Umrboy; Shomurodov, Jabborbergan. Sulaymon Boqirg'oni (Hakim ota). – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
4. Rumi J. Ichindagi ichindadir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – 238.
5. Rumi J. Masnaviyi ma'naviy.
6. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movorounnahr, O'zbekiston. NMIU, 2009.
7. Ismoilov, Mas'udxon; Akbarov, Abrorxon. So'fi Allohyor. "Sabotul ojizin" sharhi. Samarqand, 2018.
8. Rushdiy, Muhammad Siddiq. Avliyolar sulтони. – Toshkent:Kamalak,1996.–172 b.
9. Kaykovus, Unsurulmaoliy. Qobusnoma. – Toshkent: Istiqlol. – 174 b.